



TA'LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: DOLZARB TENDENTSIYALAR VA
STRATEGIK YO'NALISHLAR

Nizametdinov Ali Akramovich

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali assistanti, O'zbekiston
alwaysberich@mail.ru

Umurzaqova Shahzoda Azamatovna

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali talabasi, O'zbekiston
umurzaqovashahzodaa@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim tizimini takomillashtirish yoritilgan bo'lib, undagi dolzarb tendensiyalar va strategik yo'nalishlar haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati, pedagogik fenomen, o'quv jarayon, istiqbolli ehtiyojlar, ta'lim sifati, ta'lim tizimi, borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosat.

Аннотация: В данной статье рассказывается о совершенствовании системы образования, современных тенденциях и стратегических направлениях.

Ключевые слова: демократическое правовое государство, гражданское общество, педагогический феномен, образовательный процесс, перспективные потребности, качество образования, система образования, развивающая социально-экономическая политика.

Abstract: This article describes the improvement of the education system, current trends and strategic directions.

Key words: democratic legal state, civil society, pedagogical phenomenon, educational process, prospective needs, quality of education, educational system, developing socio-economic policy.

Bugungi kunda O'zbekiston demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish yo'lidan izchil borayotganligi uchun kadrlar tayyorlash tizimi tubdan isloh qilindi davlat ijtimoiy siyosatida shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligi qaror topdi. Shu bilan birga, o'quv-tarbiyaviy jarayonni ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash zarurati ham kadrlar tayyorlash milliy dasturini ro'yobga chiqarish shartlaridan biridir. Shu sabab biz bu pedagogik fenomenning paydo bo'lishi va rivojlanish jarayonini o'rganishga tarixiy yondashmoqdamiz. O'quv jarayonidagi o'ziga xos xususiyatlar majmui ta'lim sifati bo'lib, inson, jamiyat va davlatning istiqbolli ehtiyojlariga muvofiqligini ta'minlash asosida uning samaradorligini oshirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Hozirda yurtimizda ta'lim sohasini tubdan modernizatsiya qilish asosida uning yuqori darajasiga erishish va yanada takomillashtirish bo'yicha xorijiy va mahalliy tajribalar tadqiq qilinmoqda. Ta'lim sifati- bu butun ta'lim tizimi tarkibiy qismlarining sifat vazifalari, murakkab rivojlanish kuchi(dinamika)ga ega bo'lgan jarayondir. U ta'lim muassasalari faoliyatidagi iqtisodiy, texnologik, ijtimoiy va siyosiy muhitning o'zgarishi bilan izohlanadi.

Prezidentimiz va Respublika hukumati olib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatda mamlakat hayotining barcha jabhalarini rivojlantirishga, ayniqsa kelajak avlodni milliy



tiklanish mafkurasi ruhida tarbiyalashga juda katta e'tibor berilmoqda. Hozirgi paytda ta'lim olayotgan yoshlar Respublikamizning kelajagidir. Bu sharaflı vazifani bajarish o'qituvchilar zimmasiga tushadi. Shu sababli yuksak malakali o'qituvchilar tayyorlash va ularning malakasini oshirish masalalariga katta e'tibor qaratilayapti. Bugungi kunda ta'lim tizimini takomillashtirish orqali har tomonlama yetuk, barkamol, mustaqil fikrlashga qodir, irodali, fidoiy va tashabbuskor kadrlarni tayyorlashga katta e'tibor berilmoqda. Bu borada ta'lim turlari to'g'risidagi mutlaqo yangi qoidalar hayotga joriy etildi. Kadrlar tayyorlash va uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilishning huquqiy – me'yoriy asosi yaratildi. «Ta'lim to'g'risidagi» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qonunlari uzluksiz ta'lim tizimida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ularda ilmiy dunyoqarashni, mehnatga ijodiy munosabatni tarkib toptirish, ularda yuksak mehnat intizomini shakllantirish vazifasini qo'yadi.

Hozirgi zamon talabi - bu barcha talablarga to'liq javob beradigan mutaxassisni tayyorlashdir. Hozirgi vaqtda respublikamizda yosh avlodni tarbiyalash o'qitish bilim berish zamonaviy axborot texnologiyalarga yaqindan yondashish hamda yangi texnika va texnologiyalar bilan ishlashni o'rgatish maqsadida juda ko'p ijobiy ishlar amalga oshirilib borilmoqda. Ulardan asosiysi "Masofadan o'qitish texnika va texnologiyasi"dir. Shu nuqtai nazardan yosh avlodni masofadan o'qitish tizimiga tayyorlash bosqichlarini quyidagi ko'rinishda amalga oshirish mumkin. Hozirgi axborot texnologiyalar jadal rivojlanib borayotgan davrda masofaviy o'qitish katta ahamiyat kasb etmoqda. Chunki ta'limning bu turi shu paytgacha mavjud bo'lgan ta'lim turlaridan o'zining ayrim ijobiy tomonlari bilan ajralib turadi. MO'ning kunduzgi va boshqa ta'lim turlaridan farqli jihati shundaki mazkur ta'lim turiga juda keng aholi ommasini jalb qilish mumkin. MO' o'zida kunduzgi va sirtqi ta'lim turlarining ijobiy xususiyatlarini mujassam etadi.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida ta'lim tizimini takomillashtirish orqali har tomonlama yetuk, mustaqil fikrlaydigan, tashabbuskor, ishlab chiqarish sohasida yuzaga kelgan raqobatga bardoshli, keskin o'zgarishlarga moslasha oluvchi, shuningdek, mehnat bozorida mutaxassislar malakasiga qo'yilayotgan talablar darajasida samarali faoliyat yurita oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashga katta e'tibor berilayapti. Hozirgi davrda ishlab chiqarishda texnika va texnologiyalarning yangilanayotganligi, ilm fanning jadal taraqqiyoti mutaxassis kadrlardan o'z bilimlarini mustaqil va muntazam ravishda chuqurlashtirib, yangilab, to'ldirib va kengaytirib borishni talab etadi. Jahon miqyosidagi ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy o'zgarishlar bo'lajak mutaxassis kadrlarni tayyorlash tizimini kompetentli yondashuvi asosida tashkil etish va boshqarishni taqozo etmoqda.

Hozirgi paytda Germaniya, Xitoy, AQSh, Angliya, Yaponiya kabi rivojlangan mamlakatlar ta'lim standartlarida ta'lim oluvchilarning global ko'nikmalarini "global skills" shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buning uchun amaldagi kasbiy ta'limning mazmuni, o'qitish texnologiyalari va o'zlashtirish natijalarini baholash tizimlarini kompetentli yondashuv asosida modernizatsiyalash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy ta'limning rivojlanishi yangi ijtimoiy-madaniy vaziyatni tahlil qilish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqish ta'lim sifatini rivojlantirishning muhim tamoyillaridan biri bilan bog'liq bo'lib, bunda ko'plab tadqiqotchilar maktabni demokratlashtirish muhimligini va bu ta'lim oldida turgan muammolarni hal qilishning kaliti ekanligini



ta'kidlab o'tgan. Ta'limni demokratlashuvi deganda ta'limni boshqarishning davlat-jamiat tizimiga o'tilishi, ta'lim va tarbiya uslublarining tanlanishida o'quv muassasalarining mustaqilligini kengayishi tushuniladi. Ta'lim sifatini ta'minlashda muhim ahamiyatlar quyidagicha:

- kasb etadigan pedagogik tizimni boshqarishni demokratlashtirish,
- u kadrlarni tanlash,
- shartnoma asosida ishga qabul qilish,
- qabul qilinayotgan qarorlarni ochiq muhokama etish,
- axborotlarni barcha uchun ochiq, tushunarli bo'lishiga erishish,
- ta'lim muassasasi hayotiga oid o'z fikrlarni bildirishlariga imkon berish,
- ta'lim muassasasida demokratik g'oyalarning ustuvor o'rin tutishini anglatadi.

Xulosa qilib aytganda, ta'limni rivojlantirishning yana bir muhim tamoyili uzluksiz ta'lim tamoyilidir. Ushbu tamoyil bir tomondan, ta'lim sifatini oshirishning sharti hisoblansa, ikkinchi tomondan, ta'lim tizimini yaxlit tizim sifatida qurishda zamonaviy ijtimoiy moyilliklarni aks ettiradigan eng muhim ijtimoiy-pedagogik tamoyil hisoblanadi. Avvalo, shuni e'tiborga olish kerakki, an'anaviy ravishda o'rganilayotgan ilmiy atamada uzluksizlikka doimiy ta'lim jarayoni sifatida qaraladi, bugungi globallashuv sharoitidagi zamonaviy jamiyatda esa, biz uzluksiz ta'lim tamoyilini hayotni tez o'zgarib borishi munosabati bilan inson butun hayoti davomida o'z ustida ishlash, rivojlanish sari yo'naltirilgan g'oyasini nazarda tutamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Gafforov Ya. X. (2020). Methods for developing a system of teaching history and increasing the effectiveness of history teaching. Indiya. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research. 2020, 108.
2. Abdurakhmanova, J. N. (2020). The policy of tolerance in Uzbekistan (in the case of Greeks). International Journal on Integrated Education, 2(5), 212.
3. Toshtemirova, S. (2020). Ta'limda Chirchiq tajribasi. Academic Research in Educational Sciences, 1 (3), 445-451.
4. G`afforov. Ya.X. Maktab islohati va o`qitish metodlarini takomillashtirish. Science and education. Sgientific Journal. 2020, 482. 5. Toshtemirova S. A. (2020). Ta'lim sifati va uni demokratlashtirish ilmiy muammo sifatida // Uzluksiz ta'lim. № 1 (86). - S.5
5. Gafforov Ya.X. Toshtemirova. S. (2020). Ways to increase the effectiveness of education in an integrated environment. International Journal of Current Research and Review. India.
6. Akramovich N. A. The priority of using innovative technologies in the agricultural education system //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 10. – C. 185-191.
7. Xolmuradovich X. B. et al. GOVERNMENT AND NON-GOVERNMENT FORMS OF BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP SUPPORT //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 258-265.



8. Raipovna V. S., Akramovich N. A., Dildora F. DEVELOPMENT OF INNOVATIVE POLICY IN THE SPHERE OF EMPLOYMENT //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 201-209.

9. Alijon N., Sirojiddin S., Azizbek A. FRANCHISE SYSTEM IN BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 250-257.

10. Susanna V., Ali N., Asliddin T. INNOVATIVE AND DEVELOPMENTAL ECONOMY OF UZBEKISTAN //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 304-310.

11. Xolmuradovich X. B. et al. IMPORTANCE OF BANKING SYSTEM IN UZBEKISTAN //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 218-224.

12. Raipovna V. S., Akramovich N. A., Matlab I. SEMANTIC MODULES IN THE LEXICAL SYSTEM OF THE LANGUAGE //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 230-237.

13. Xolmuradovich X. B. et al. THE DEVELOPMENT OF THE SPORTS SYSTEM IN UZBEKISTAN, THE GUARANTEE OF THE HEALTHY AND WELL-ROUNDED YOUTH //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 266-269.

14. Raipovna V. S., Akramovich N. A., Sevinch K. PRODUCTION CAPACITY OF INDUSTRIAL ENTERPRISES AND WAYS TO INCREASE IT //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 238-241.

15. Nizametdinov A. A. OLIY TA'LIM TIZIMIDA AGRAR SOHANING USTUVORLIGI UNDA INNOVATSIYALARNING QULLANISHI //INTERNATIONAL CONFERENCES. – 2022. – T. 1. – №. 6. – C. 96-98.

16. G'aybullayev S. The place of the digital economy today //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 11. – C. 116-126.

17. Akramovich N. A. HISTORY, SUBJECT AND OBJECT OF FORMATION OF "MACROECONOMICS". Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10 (1), 209-210. – 2022.

18. Nizametdinov A. et al. THE NATURE, CAUSES AND CONSEQUENCES OF THE HIDDEN ECONOMY AND FACTORS AFFECTING IT //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – T. 10. – C. 22-39.

19. Nizametdinov A. et al. THE PLACE OF THE DIGITAL ECONOMY IN OUR DAILY LIFE //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 12. – C. 100-124.

20. Alijon N., Sherzod Y. FACTORS OF INSURANCE ACTIVITY IMPLEMENTATION //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 20-24.

21. Akramovich N. A. et al. PROBLEMS AND SOLUTIONS IN WORKING WITH THE POPULATION IN THE BANKING SYSTEM OF UZBEKISTAN //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 25-30.



22. Akramovich N. A. et al. RAQAMLI IQTISODIYOTNI O'ZBEKISTONDAGI O'RNINI //Conferencea. – 2022. – C. 67-69.
23. Akramovich N. A. Sun'iy intellektni kadrlar siyosatini rivojlantirishdagi ahamiyati //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – C. 251-253.
24. Nizametdinov A. A., Ahmedova H. Elektron ta'lim metodologiyasi rivojlantirishning usullari //Scienceweb academic papers collection. – 2022.
25. Akramovich N. A. The priority of using innovative technologies in the agricultural education system //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 10. – C. 185-191.